

“Open bank” aksiyadorlik jamiyati  
Kuzatuv kengashining  
2025-yil 21 - oktabr dagi  
21-10/1 -sonli yig‘ilish bayonnomasiga  
29 -ilova

|          |                                                     |
|----------|-----------------------------------------------------|
| openbank | Ro'yxatdan o'tkazildi                               |
|          | Ro'yxat raqami: <u>I-115</u>                        |
|          | Sana: "№ <u>22</u> " <u>oktabr</u> 20 <u>25</u> yil |

«OPEN BANK» AKSIYADORLIK JAMIYATINING  
ZAXIRA FONDI TO'G'RISIDA  
NIZOM

Toshkent – 2025-yil.

Mazkur "Open bank" aksiyadorlik jamiyatining zaxira fondi to'g'risida nizom" (keyingi o'rinlarda Nizom deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi hamda "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunlari va boshqa qonunchilik hujjatlari hamda "Open bank" aksiyadorlik jamiyati Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom "Open bank" aksiyadorlik jamiyati (keyingi o'rinlarda Bank deb yuritiladi) zaxira fondining maqsadlari, shakllantirish manbalari hamda ishlatilishining umumiy qoidalarini belgilab beradi.

2. Zaxira fondining maqsadi amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda zararlar o'rnini qoplash, korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash va aksiyalarni qaytarib sotib olish uchun tashkil etiladi.

### **2-bob. Zaxira fondini shakllantirilishi**

3. Zaxira fondining miqdori to'g'ridan-to'g'ri ustav kapitalining hajmiga bog'liq bo'ladi va zaxira fondi sof foydadan yillik ajratmalar hisobiga shakllantiriladi.

4. Bankda ustav kapitalining 15 (O'n besh) foizidan kam bo'lmagan miqdorda zaxira fondi tashkil etiladi.

5. Bankning zaxira fondi Bank ustav kapitalining 15 (O'n besh) foiziga yetguniga qadar Bank sof foydasidan har yilgi ajratmalar orqali shakllantiriladi.

6. Bankda har yili Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga muvofiq Bank sof foydasining 5 (Besh) foizidan kam bo'lmagan miqdorda zaxira fondiga ajratmalar amalga oshiriladi.

### **3-bob. Zaxira fondini ishlatishi**

7. Bankda shakllangan zaxira fondi Bank Kuzatuv kengashi qaroriga muvofiq amaldagi qonunchilik hujjatlari, Bank Ustavi hamda ushbu Nizomga muvofiq quyidagi maqsadlarda ishlatilishi mumkin:

Bankning zararlarini o'rnini qoplashga;

Bankning korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarishga;


imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lashga;

Bankning aksiyalarini qaytarib sotib olishga.

8. Bankning zaxira fondidan ushbu Nizomning 7-bandida ko'rsatilgan maqsadlardan tashqari boshqa maqsadlar uchun foydalanish mumkin emas, qonunchilik hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

### **4-bob. Hisob va hisobot**

9. Zaxira fondi moliyaviy hisobotlarning halqaro standartlari talablariga va



Bankning hisob siyosatiga muvofiq kapital hisoblarida aks ettirilgan zaxira kapitalini hisobga olish uchun mo'ljallangan 30903-"Umumiy zaxira fondi" balans hisobvarag'ida hisobi yuritiladi.

10. Zaxira fondini shakllantirilishi va ishlatilishining buxgalteriya hisobi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2021 yil 26 noyabrda 3336-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Tijorat banklarida buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi"ga muvofiq amalga oshiriladi.

11. Bank tomonidan zaxira fondini shakllantirilishi va ishlatilishi yuzasidan hisobotlar G'aznachilik boshqarmasi tomonidan yuritiladi va bank boshqaruv organlari talabiga muvofiq ularga taqdim etiladi va/yoki ommaga oshkor etiladi.


### **5-bob. Yakuniy qoidalar**

12. Mazkur Nizom talablariga rioya etilishi ustidan monitoring va nazorat Bank Boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladi.

13. Ushbu Nizomga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

14. Mazkur Nizom bilan tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

15. Ushbu Nizomning alohida bandlari O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi zid bo'lsa, ushbu bandlar o'z kuchini yo'qotadi va ushbu bandlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgunga qadar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari normalariga amal qilinadi.



**YURIDIK XULOSA**  
**(ichki qoidani huquqiy ekspertizadan o'tkazish to'g'risida)**

**Toshkent shahar**

“ 07 ” \_\_\_\_\_ 10 \_\_\_\_\_ 2025 yil

Ekspertiza o'tkazuvchi: “Open bank” aksiyadorlik jamiyatning (keyingi o'rinlarda “Bank” deb yuritiladi) Yuridik boshqarmasi.

Ekspertizadan o'tkazilgan me'yoriy hujjat nomi: “Open bank” aksiyadorlik jamiyatining zaxira fondi to'g'risida nizom (keyingi o'rinlarda “ichki qoida” deb yuritiladi).

Ekspertiza o'tkazishda foydalanilgan qonunchilik va me'yoriy hujjatlar: O'zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi qonunlari, Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariga qo'yiladigan talablar to'g'risida nizomi va boshqa amaldagi qonunchilik hujjatlari, hamda “Open bank” aksiyadorlik jamiyatning ustavi va boshqa ichki me'yoriy hujjatlar (keyingi o'rinlarda “qonunchilik va me'yoriy hujjatlar”).

Mazkur ichki qoida qonunchilik va me'yoriy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, Bankning zaxira fondining maqsadlari, shakllantirish manbalari hamda ishlatilishining umumiy qoidalarini belgilab beradi.

Ushbu ichki qoida ishlab chiqishda qonunchilik texnikasi qoidalariga rioya qilingan.

Mazkur ichki qoida, agar unda boshqa muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, Bankning Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan kunning ertasidan kuchga kiradi.

Ushbu ichki qoidaga o'zgartirish va qo'shimchalar Bankning Kuzatuv kengashining qarori asosida kiritiladi.

Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlarida ishlab chiqilishi belgilangan ichki qoidalar, shuningdek ularga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar tijorat banklari tomonidan tasdiqlangandan so'ng 15 (o'n besh) kun ichida Markaziy bankka taqdim etilishi kerak.

**“Open bank” aksiyadorlik jamiyatning**  
**Yuridik boshqarmasi boshlig'i**  
**S.I. Salimov**

